

SOHIBQIRON AMIR TEMUR: BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI

Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20825053>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tarixida beqiyos iz qoldirgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati hamda ilm-fan, madaniyat va me'morchilik sohalariga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Shuningdek, Temuriylar saltanatining barpo etilishi, Sohibqironning davlat boshqaruvi tamoyillari, "Temur tuzuklari" asarining mazmun-mohiyati va uning jahon tarixidagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Sohibqiron, Temur tuzuklari, Temuriylar davlati, tarix, harbiy yurishlar, davlat boshqaruvi, madaniyat, me'morchilik, ilm-fan.

Amir Temur 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Amir Muhammad Tarag'ay barlos qabilasiga mansub bo'lib, nufuzli va obro'li shaxs edi. Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga kata hissa qo'shgan. U olimlar va hunarmandlarni o'z poytaxti Samarqandga jalb etib, ular uchun madrasalar va boshqa inshootlar qurdirgan. Bu esa ilm-fan va san'atning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Amir Temur davlat boshqaruvida qat'iy tartib intizom o'rnatdi. Saltanat boshqaruvi ikki asosiy idoradan: dargoh va devondan iborat bo'lib, dargohni Amir Temurning o'zi boshqargan. Bu tizim davlatning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilgan. Amir Temur (1336-1405)-O'rta asrlarning eng yirik sarkardalaridan biri bo'lib, o'zining harbiy salohiyati, siyosiy zakovati va davlatni boshqarishdagi o'ziga xos strategiyasi bilan dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan. Uning asos solgan Temuriylar saltanati keyinchalik ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Amir Temur qat'iyati, zukkologi, adolatparvarligi va dono qarorlari bilan ajralib turgan. U har bir yurishni puxta rejalashtirgan, harbiy strategiyalarni yuksak darajada qo'llagan. Amir Temur 1371-1404-yillar oralig'ida Mo'g'uliston, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom(Suriya), Hindiston, Gurjiston, Armaniston kabi mamlakatlarga harbiy yurishlar uyushtirgan. Uning harbiy strategiyasi va taktikasi o'sha davr uchun juda ilg'or bo'lib, ko'plab g'alabalarga erishgan. Temur o'z atrofida sodiq va malakali lashkarboshilarni to'plagan. Temurning harbiy yurishlari: 1370-yil Balxni egallab, Movaraunnahrda yegona hokimiyatni tikladi. 1380-1387-yillar Eron, Ozarbayjon va Kavkaz hududlariga yurishlar. 1398-1399-yillar Hindistonga yurish; Dehli saltanatiga zarba berdi. 1400-1401-yillar Shom va Iroqqa yurish, Bag'dod bosib olindi. 1402-yil Anqara jangida Usmonlilar sultoni Boyazidni tor-mor qildi. 1404-yil Xitoy yurishiga tayyorgarlik boshlandi, ammo 1405-yilda vafot etgani sababli amalga oshmadi. "Shaxsiy namunada yetakchilik qilish" tamoyiliga qat'iy amal qilgan. Temur Xitoy, Fransiya, Angliya kabi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. 1404-yilda Samarqandga kelgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Temurning saroyidagi tartib-intizom va Temurning siyosiy salohiyatini hayrat bilan tasvirlaydi. Temur lashkar tuzilmasini takomillashtirgan: mingboshilar, yuzboshilar va o'nliklar tizimi. Har bir jang oldidan razvedka yuborilgan. Temur janglarda psixologik ustunlik, chalg'ituvchi manevrlar orqali ham g'alaba qozongan. Temur qo'shin tuzilmasini tubdan isloh qilgan: Lashkar tartibli tuzilishga ega bo'lgan: "mingboshilar", "yuzboshilar", "o'nliklar" tizimi joriy etilgan. Temur Samarqand va Shahrisabzda madrasa, masjid, maqbara, saroylar qurdirgan. Mashhur obidalar: Bibi Xonim

masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Ak-Saray saroyi. Temur olim va me'morlarni qo'llab-quvvatlagan. "Temur tuzuklari" da harbiy xizmat, soliq tizimi, vatanparvarlik, odob-axloq kabi qoidalar jamlangan. Bu asar ko'plab hukmdorlar uchun boshqaruv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan. Bu asarda Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, davlatni boshqarishdagi tamoyillari va axloqiy qarashlari bayon qilingan. Asar ikki qismdan iborat: Birinchi qism: Temurning tarjimai holi, u yetishgan muhit, harbiy yurishlari, davlatchilik asoslari. Ikkinchi qism: Davlat boshqaruvi, lashkar tuzilmasi, soliqlar tizimi, odil hukm, odob-axloq, sadoqat, fidoyilik va rahbarlik fazilatlariga haqida yozilgan. Bu asar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki davlat boshqaruvi bo'yicha qo'llanma sifatida ham qadrlanadi. "Temur tuzuklari" keyinchalik ko'plab hukmdorlar tomonidan o'rganilgan va tatbiq etilgan. Asardagi asosiy g'oyalar: Rahbarlik tamoyillari: "Podsholik –bu xalqni adolat bilan boshqarishdir. Agar podshoh adolatdan cheksa, saltanat qulaydi." Harbiy intizom va vatanparvarlik: "Lashkar boshida turuvchi kishi birinchi navbatda jasoratli, ikkinchi navbatda dono, uchinchi navbatda o'z eliga sadoqatli bo'lmog'i darkor." Ilm-fan va olimlarga hurmat: "Menga mamlakat kerak emas, agar u yerda ilm yo'q bo'lsa. Chunki ilm yo'q yerda zulmat hukm suradi." Ijtimoiy tenglik va tartib: "Har bir kishi o'z ishi bilan shug'ullansin: dehqon-yer haydasin, hunarmand- mehnat qilsin, olim-ilm bersin." Bu asar Markaziy Osiyoda ilk siyosiy-huquqiy fikr taraqqiyotining muhim namunasidir. Temurning shaxsiy tajribasi asosida yozilgan bo'lib, davrning real siyosiy holatini yoritib beradi. Unda adolat, sadoqat, shijoat kabi qadriyatlar yuqori baholangan. Bu asar hozirgi zamonaviy davlat boshqaruvi nazariyalariga ham yaqin bo'lgan fikrlarni o'z ichiga oladi. Asarning asl nusxasi arab tilida yozilgan degan qarash mavjud. Keyinchalik fors va turkiy tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda uning o'zbek tilidagi tarjimalari mavjud. Uning nomiga bog'liq boshqa yozuvlar xam mavjud. Makotib(maktublar): Amir Temurning ba'zi siyosiy va diplomatik maktublari saqlangan. Ular orqali uning til madaniyati, diplomatiya san'ati, dushman va do'stga munosabati o'rganiladi. Siyosiy farmon va nutqlari: Ba'zi tarixiy manbalarda Temurning siyosiy chiqishlari va nutqlari haqida ma'lumotlar bor. Bular uning dono va zukko davlat arbobi bo'lganidan darak beradi. "Zafarnoma"-Sharafiddin Ali Yazdi tomonidan yozilgan. Bu Amir Temurning hayoti va harbiy yurishlariga bag'ishlangan tarixiy asardir. "Matlai Sa'dayn va Majma'ul bahrayn"- Abd ur –Razzoq Samarqandiy asari, unda Temuriylar davri voqealari yoritilgan. Ruy Gonsales de Klavixo kundaligi-Ispan elchisi Klavixonning 1404-yilda Samarqandga qilgan safaridagi kuzatuvlari Temur saroyidagi hayotni tasvirlaydi. "Tarixi mulkaro"-Temur va temuriylar haqida yozilgan fors tilidagi tarixiy asarlardan biri.

Xulosa, Amir Temur faqat zabardast sarkarda emas, balki dono siyosatchi va o'z davrining yirik ma'rifatparvar shaxs edi. Uning merosi bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda qadrlanadi. Sohibqironning shaxsiyati va faoliyati har doim tarixchilar, siyosatchilar va ziyolilar e'tiborida bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Temur, A. Temur tuzuklari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
2. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat 2008.
3. Aliyev, R. Amir Temur: jahon tarixidagi o'rni. Samarqand: "Zarafshon", 2012.